



1991-yildan

chiqa boshlagan

2022-yil. 3-son
ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ILMIY-METODIK JURNALI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING

ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ

НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

L

ПРЕПОДАВАНИЕ

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

**ZULFIYA NOMIDIGI DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLANGAN
YOSH ISTE'DODLI QIZLARNI TABRIKLAYMIZ!**



Dolzarb mavzu

Malaka oshirish tizimi:
muammo va yechimlar
nimada?

3
b
e
t



Tahlil

Navoiyning qirq yillik
hamdani

23
b
e
t



Tadqiqotlar

Ingliz, rus va o'zbek
tillaridagi frazeologik
birliklarning
pragmatik xususiyatlari

33
b
e
t



Научные исследования

Графический аспект
инпарцеллированных
конструкций в романе
А.Белого «Петербург»

67
b
e
t



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2022-yil. 3-son.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV Yorqinjon
ODILOV Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV Abdurahim
NOSIROV Tolib ENAZAROV To'liqin
SAYDALIYEV Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA Qozoqboy
YO'LDOSHEV Tajixon SABITOVA Salima
JUMAYEVA Nilufar NAMOZOVA Lutfullo
JO'RAYEV (bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar
ko'chasi 32-uy. Telefon: (98) 121-74-
16,

(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67,

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va ada-
biyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jur-nalda nashr etilgan maqolalarda muallif-arning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-
mu-lohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi-
va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.03. da topshirildi. Ofset usu-
lida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/1/8. Shartli bos-
ma tabog'i 6,0. «Arial» garniturasida. 10, 11 kegl. «ECO
TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop
etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar
ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2200 nusxa. Bahosi
kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU	
Nigora Uralova. Malaka oshirish tizimi: muammo va yechimlar nimada?	3
DARS - MUQADDAS	
Patima Toshxo'jayeva, Malohat Axmedova. Kredit-modul tizimida mustaqil o'quv topshiriqlarining didaktik, pragmatik usullari	9
Mavluda Isroilova. Urushning so'nggi qurboni aslida kim?	11
METODIK TAVSIYA	
Nazokat Ilyanova. Darslarda "muloqot" texnologiyasidan foydalanishning amaliy o'rni	13
Hoshim Ahmedov. Adabiy tahlil malakasi	15
Mohinabonu Rahimova. Esse (insho) matnlari sarlavha stilistikasi	17
Dilorom Sobirova. Using the cluster method in teaching english	19
Nazira Dusbayeva. Integrated approaches to teaching writing in english lessons	21
TAHLIL	
Farruxbek Olim. Navoiyning qirq yillik hamdani	23
Abdurahmon Pirmuqolov. To'rtliklarda bardavom an'analar	24
Emina Achilova. Sujet, obraz, uslub xususiyatlari	26
Emine Yevstegniyeva. Specific features of form, style and language of fiction with philosophical coating	28
TADQIQOT	
Azamat Uralov. Murakkab shakllarning hosil bo'lishida morfem birliklar hamda qo'shma affiksalar nomutanosibli	30
Nodira Sabirova. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari	33
Umida Davurova. Kuzatuvchi kategoriyasining lisoniy tahlili	35
Nasiba Raimnazarova. Polisemantik dialektizmlarning leksikografik talqini	38
Dilobarkhon Azimova. Potential problems and pedagogical approaches in teaching english grammar	40
TARJIMASHUNOSLIK	
Nilufar Rahmonova. Tarjimada ekvivalentlik	42
Nozima Qodirova. Tarjima modellari va strategiyalari muammosi	43
KICHIK TADQIQOT	
Otabek Xidirov. Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasi	44
Rushana Inoyatova. The role of learner characteristics in shaping language identities	46
Oygun Axmedova. Folklorni OAVda yoritish va talqin qilish tamoyillari	47
METODICHESKIE REKOMENDACII	
Anvar Yusupov. Методические особенности работы над лексическим материалом при обучении иностранным языкам	50
Феруза Хилолидинова, Азиза Файзуллаева. Современные методические технологии в обучении иностранному языку	50
IZ OPIYTA PREPODAVATELYA	
Nasiba Niyozova. Формирование навыков составления собственного монологического высказывания при изучении русского языка в национальной аудитории	52
Комила Аскарлова. Преподавание и изучение терминологии в системе среднего образования: к специализации через язык	53
YAZYKOZNAНИЕ	
Бахтиёр Гафуров. Исследование анатомических и гистологических терминов в текстах рекламы	55
Майя Эм, Фазлиддин Якубов. Теоретические принципы построения фразеологических словарей	56
Венера Жамединова. Синтаксические конструкции в паремиях каракалпакского языка с концептом «труд»	57
Гулмира Мамаджанова. Изучение функционирования лингвокультурем в журнальных текстах	59
ZARUBEJNAYA LITERATURA	
Нигора Каримова. Роль литературы в формировании нации	61
PROBLEMY. POISKI. RESHENIYA	
Сунбула Менглиева. Специфика изучения иностранной терминологии специальности в высших военных учебных заведениях	63
Фатима Хакимова. Функциональные возможности употребления антонимов как одного из факторов активизации речевой деятельности учащихся при обучении русскому языку	64
NAUCHNIE ISSLEDOVANIYA	
Эльвина Алиева. Графический аспект инпарцелированных конструкций в романе А.Белого «Петербург»	67
Байрамбай Утемуратов. Формирование личности учащихся средней общеобразовательной школы посредством коммуникативной компетенции	70
POLEMIKA	
Сайёра Ибрагимова. Несколько слов о псевдонимах и «говорящих» фамилиях	73
Нилуфархон Юлдашева. Проблемно-тематическое поле рассказа И.Абузарова «Лунная белизна бумаги»	74
FORMY OBUCHENIYA	
Шахноза Муракаева. Современные интерактивные методы развития устной компетенции при обучении военных юристов английскому языку	75
V MIRE KNIG	
Замира Нуржанова. Культурное и историческое значение рукописной книги в период становления книгопечатания	78
Рисолат Хайдарова. Сборник стихотворений Чулпана на русском языке	79

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ПРЕПОДАВАНИЕ LANGUAGE AND LITERATURE

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ L TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

TIL VA ADABIYOT





Patima TOSHXO'JAYEVA, *Toshkent tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi,*
Malohat AXMEDOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL O'QUV TOPSHIRIQLARINING DIDAKTIK, PRAGMATIK USULLARI

O'zbekiston Respublikasi oily ta'lim tizimi kredit-modul tizimiga o'tish jarayonlarida islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni ijrosini ta'minlashda kamida o'n ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 taligi ro'yxatiga kiritish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish belgilab berildi. [1: 11]

Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Ona tili o'qitish metodikasi didaktik, pragmatik yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish lingvodidaktik kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelishi ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish) malakalar rivojlantiriladi. Talabalarda ona tilidan (ular tilning tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina rivojlantiriladi. Bunday vaziyatda ona tili o'qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon, mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini takomillashtirishdan iborat bo'lishi lozim. [2: 19] Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarda turgan OTMLar faoliyatini o'rganish, zamon va jahon talablariga mos o'quv rejalarni ishlab chiqish, oliy filologik ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'limning kredit-modul tizimi mohiyati, ishlash mexanizmini oliy filologik ta'lim tizimidagi professor-o'qituvchilar va talabalarga yetkazishda universitetda kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni monitoringini olib borish talab etiladi. Xalqaro rivojlangan davlatlarda til o'qitish metodikasi bo'yicha keyingi yillarda bir qator yutuqlar qo'lga kiritilgan. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Zero, til muloqot vositasi sifatida barcha yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham lingvodidaktik o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo til o'qitish metodikasiga andoza bo'layotgan ingliz tili ta'limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. [4: 14]

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro til o'qitish metodikasida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish o'quv topshiriqlari sifatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda. Xalqaro tajribadan ma'lumki, modul-kredit tizimi o'zining bir qator afzalliklariga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda talabaga ta'lim berish uni mustaqil ishlashga yo'naltirish ekanligi zamonaviy talablarga nihoyatda mos keladi.

Dunyoda oliy ta'lim tizimi talabaning mustaqil faoliyatiga asoslanganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda mustaqil o'quv topshiriqlarining mazmuni-ga, samaradorlik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan savol, tezkor savol-javob, topshiriq, matn tahlillari va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan mustaqil o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida rivojlantiriladi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar mazmuni, natijasi oliy filologik ta'limda kredit-modul tizimiga o'tishning amaldagi holati va istiqbollari belgilab bergan. Filologik oliy ta'lim tizimining ona tili o'qitish metodikasida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, xususan, oliy o'quv yurtlarida ona tili o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida savol, mashq va topshiriqlarning berilishi, shuningdek, o'quv topshiriqlarini didaktik va pragmatik jihatdan takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. M.B.Elkonin konsepsiyasiga ko'ra, bolani rivojlantirish jarayonida, avvalo, faoliyatning motivatsion tomonini, keyin esa texnik jarayonni o'zlashtirish amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, olimlar quyidagi omillarni ham ajratib ko'rsatadilar: ijtimoiy-siyosiy (tilning davlatga xosligi, maktabda o'qish majburiyati); kasbiy qiymat (kasbga o'qitish davlat tilida olib boriladi); ijtimoiy obro', jamoaviy mas'ullik; kommunikativ aloqa (ona tilida muloqot qilish zaruriyati); o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj, o'zini takomillashtirish istagi bilan bog'liq sabablar; utilitar (ma'lum hayotiy manfaatlarga erishish vositasi sifatida tilni bilish zarurati); xavotirlanish sabablari (sinfni orqaga tortmaslik, past baho olmaslik); ona tili va adabiyot o'qituvchisiga hurmat motivi.

Til tashuvchisining rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi psixologik shartlar orasida lisoniy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Ko'pchilik zamonaviy olimlar

“til tashuvchisi”- tushunchasining tuzilish tarkibiga quyidagilarni kiritadilar: tilning lingvistik kompetensiyasi; nutqiy kompetensiyasi; fan kompetensiyasi; pragmatik kompetensiya; kommunikativ kompetensiya. Doimiy intellektual rivojlanishda ruhiy jarayonlar (xotira – vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy), insonning ma’naviy boyligi – doimiy ma’naviy rivojlanish, axloqiy me’yorlar, avvalo, muloqot me’yoriga rioya qilish muhim ahamiyat-ga ega.

M.Neppga ko’ra, odam ongida nutq rivojlanishi bilan bir qatorda ehtimoliy ongosti harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi.

L.S.Vigotskiy, I.Y.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynning psixologik tadqiqotlar tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog’liqligi haqida gapirishga imkon beradi. “Ona tilining kommunikativ rivojlanishi” iborasi, I.Y.Zimnyaning fikricha, quyidagilarni ta’minlaydigan murakkab ko’p qirrali hodisa sifatida ko’rib chiqilishi kerak: lug’at hajmi; nutq qoidalari egallashning mohirlik darajasi; fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati; suhbatdosh replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish, og’zaki muloqot shakllarini bilish darajasi; o’qish sur’ati texnologiyasi darajasi; yozma nutq ko’nikmalarini, kognitiv qiziqishlarni shakllantirish darajasi; umumiy dunyoqarash. Mazkur talablarni amalga oshirish uchun ona tili ta’limida pragmatik yondashuvga asoslangan o’quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim. Buning uchun turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o’zaro muloqotning samarali bo’lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta’lim afzalliklarini o’rganib chiqish kerak.

Muloqot davomida odatda savollarga to’g’ri javob bergani uchun o’quvchilarga rag’bat yoki noto’g’ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Dars mashg’ulotida o’quvchini savol berishga undash mumkinmi, ko’p hollarda bunga e’tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. O’quvchilar tomonidan o’qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag’batlantirilmaydi. Ona tili mashg’ulotlarida va boshqa fanlarda ham o’quvchilar, asosan, javob beruvchidir. [5: 54] Aslida o’quvchiga ko’proq savol berishni o’rgatish lozim. Muloqot jarayoni- da javob savolning qanday berilganiga bog’liq bo’ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobili- yati bilan emas, balki ularni so’rash qobiliyati bilan ham belgilanadi. O’quvchilarda to’g’ri va mantiqli savol bera olish ko’nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to’g’ri qaror qabul qiladigan fikrlovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhim. Bu borada g’arb pedagogikasidagi didaktik mo’tadillik, amaliylik va erishuvchanlik tamoyil- lariga tayaniladi.

Pragmatizm – ta’limni hayotga yaqinlashtirish, ta’lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo’lgan falsafiy-pedagogik yo’nalish. [5: 39] Pragmatik fal- safa asoschilari Ch.Piyerz va Jeyms idealizm ham- da materializmdan tashqarida turgan yangi falsafani yaratishni talab qilishdi. Dastlabki pragmatistlarning g’oyalari amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyui tomoni-

dan ishlab chiqilgan. Pragmatik pedagogika hayotdan olingan maqsadlarni himoya qiladi. Amerika maktabi pragmatik ta’lim zarurligini isbotlay olgan va umumiy aholining taraqqiyoti va manfaatlariga mos keladigan ta’lim maqsadlarini taklif qila olgan. Ta’lim, J.Dyuning fikricha, insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o’zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlar- ni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim. J.Dyui ta’lim tizimi ijtimoiy muhitni yaxshilash, jamiyat turini inqilobiy o’zgarishsiz o’zgartirishning hal qiluv- chi vositasi sifatida namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. Bu nazariyotchilarning fikrlarini umumlashtirib, pragmatik pedagogikani tarbiyalashning umumiy maqsadi shaxs- ning o’z-o’zini tasdiqlashi, tan olishi, degan xulosaga kelish mumkin. Uning fikriga ko’ra, ta’lim hayotiy mu- mmolarni qanday hal qilishni o’rgatishi kerak. Ona tili ta’limida har bir mashg’ulot orqali beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday o’quvchi-ning hayotiy muammolarini yechishga yo’naltirishi lozim. Bu borada o’zbek tilshunosligida olib borilayotgan tad- qiqotlardan ham foydalanish lozim. Pragmatik usul- lar insonning ijtimoiy faoliyatini o’zida qamrab oluvchi **nutq** jarayoni, muayyan **aloqa** vaziyati orqali **namoyon** bo’ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko’ri- nishga ega emas; uning doirasiga so’zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o’zaro muno- sabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog’liq ko’plab masalalar kiradi. Ona tili ta’limiga, xususan, o’quv top- shiriqlarini takomillashtirishga yordam beradigan jihati quyidagilarda namoyon bo’ladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (fikrni yetkazish, so’roq, buyruq, il- timos, maslahat, va’da berish, uzr so’rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odo- bi turlari; suhbat, so’zlashish qoidalari; so’zlovchining maqsadi;- so’zlovchi tomonidan adresatning umumiy **bilim** jamg’armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va bosh- qa xislatlariga **baho** berilishi; so’zlovchining o’zi **bayon** qilayotgan xabarga munosabati kabilar savol berish, topshiriq bajarish, umuman, o’zaro muloqotda muhim ahamiyatga ega. Shu o’rinda mashq usullari – o’quv- chining real amaliy harakatlarini ta’minlovchi, uning ichki munosabatini mujassamlashtiruvchi, munosabat- ni moddiylashtiruvchi, ikkinchisiga ko’rinadigan ta’sirlar turidir. Mashq va topshiriqlar yordamida o’quvchilar- ning faolligi tashkil etiladi va uning ijobiy motivlari (top- shiriqlar, talablar, musobaqalar shaklida alohida va guruh faoliyati uchun turli xil vazifalar, namunalar va misollar ko’rsatish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish) rag’batlantiriladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, ijodiy tafak- kur sohiblarini tarbiyalovchi dars mashg’uloti asosini fikrlashga yo’naltiruvchi o’quv topshiriqlari tashkil qiladi. Bunday zamonaviy dars mashg’uloti quyidagi umumiy talablarga javob berishi kerak:

- 1) eng yangi ilmiy yutuqlar, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib amaliy dars mashg’ulotini tash- kil qilish;
- 2) darsni o’quv topshiriqlaridan o’rinli va maqsadli foydalangan holda tashkil qilish;
- 3) talabalarning bilish faoliyati uchun barcha shart- sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari

va ehtiyojlarini hisobga olib matn yoki mavzu bo'yicha o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;

4) savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo integratsiyani e'tiborda olish.

Grammatik qoidalar emas, balki ona tilida matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish o'quvchining adabiyotga mehr qo'yishini ta'minlaydi, ona tilining bo'y-u bastini ko'ra-

di. Grammatik nazariyalar – qoliplardir, ona tili ularga sig'maydi. Biz tilning nutqiy imkoniyatlarini ko'rsatib berishimiz kerak, bu imkoniyatlar grammatika bilan o'lchanmaydi. Demak, har bir dars mashg'uloti uch maqsadga erishishga qaratilgan: o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirish. Ona tili ta'limida, asosan, grammatik bilimlarni rivojlantirish nazarda tutilgan. To'g'ri, grammatikasiz dars mashg'uloti bo'lmaydi, biroq u me'yorida bo'lishi, til o'rganishni murakkab jarayonga aylantirib qo'ymasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov B.Sh, Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llan- ma. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1972.

3. Джон Дьюи. Общество и его проблемы / John Dewey. The Public and its Problems. – Denver / Перевод с английского И.И.Мюрберг, А.Б.Толстов, Е.Н.Косилова. – Москва, 2002.

4. L.R.Raupova. Dialogik nutqning diskursiv talqini (polipredikativ birliklar misolida). Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011.

5. L.R.Raupova. Badiiy va san'at asarlarida madaniy nutq orqali milliy mental omillarning ifodalanishi. Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2019.

Mavluda ISROILOVA,

*Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi
85-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*